

## DAUN SINDROMLI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH SINFIDA TYUTORNING ISHI

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti*

*Oligofrenopedagogika yo'nalishi 1 kurs magistri*

*Hayrullayeva Sug'diyona*

**Annotatsiya:** Daun kasalligi - tug'ma oligofreniyaning bir shakli, bunda boladagi aqli norasolik bilan birga uning tashqi qiyofasi ham o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Daun sindromini birinchi bo'lib ingliz vrachi Jon. Daun tavsif etgan Kasallik irsiy tabiatga ega bo'lib, kam uchraydi; bunga asosan xromosoma to'plamida ortiqcha xromosomalar bo'lishi (21-juft) sabab bo'ladi, shuning uchun ham ba'zan kasallik trisomiya deb yuritiladi. Daun sindromiga uchragan bolalar nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan ham zaif va turli infeksiyon kasalliklarga moyil bo'ladi. Bemorlarni asosan mehnat bilan davolash, maxsus maktablarda o'qitish lozim.

## РАБОТА ТЬЮТОРА В ДОШКОЛЬНОМ КЛАССЕ ДЛЯ ДЕТЕЙ С СИНДРОМОМ ДАУНА

**Аннотация:** Болезнь Дауна – это форма врожденной олигофрении, при которой у ребенка наблюдается отсталость умственного развития и внешнего вида. Английский врач Джон первым диагностировал синдром Дауна. Синдром Дауна является наследственным и встречается редко; в основном оно вызвано дополнительным набором хромосом (пара 21), поэтому заболевание иногда называют трисомией. Дети с синдромом Дауна не только умственно, но и физически слабы и склонны к различным инфекционным заболеваниям. Лечить больных необходимо преимущественно трудом, обучать их в специальных школах.

## THE WORK OF A TUTOR IN A PRESCHOOL CLASS FOR CHILDREN WITH DOWN SYNDROME

**Annotatsion:** Down's disease is a form of congenital oligophrenia, in which the child has mental retardation as well as physical appearance. English doctor John was the first to diagnose Down's syndrome. Down syndrome is hereditary and rare; it is mainly caused by an extra set of chromosomes (pair 21), which is why the disease is sometimes called a trisomy. Children with Down syndrome are not only mentally, but

also physically weak and prone to various infectious diseases. It is necessary to treat patients mainly with labor, to educate them in special schools.

**Kalit so'zlar:** *daun sindromi, kompensatsiya, kompetensiya, inkluziv, korreksiya, konsensus, individual, ekskursiya, eksperimental, 2yillik loyiha assotsiatsiya.*

Daun sindromli bolalarning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi ko'p jihatdan ta'limning samaradorligi maktab sharoitida erishgan yutuqlarni ijobiy baholay olishiga u birmuncha bog'liq. So'nggi yillarda daun sindromi bo'lgan bolalarning ota-onalari bolalarini qaysi maktabda o'qitishi kerakligini to'g'ri tanlay olmoqdalar. Bu maktablarda korreksiya va kompensatsiya ishlari ko'proq olib boriladi. Inkluziv maktablar va maxsus maktablarni bunday bolalar uchun ochilmoqda. Ko'pchilik maktablarda "tyutrlar" ish olib bormoqda. Bu mutaxassislar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga soddalashtirilgan o'z aqliy faoliyatiga intellektiga mos mo'ljallangan ta'lim berish ishlarini olib bormoqdalar. Bolani hissiy qulaylik va ichki resurslarga tayanadigan atmosferada uni faol rivojlanishiga yordam berish faqat o'qituvchiga bog'liq bo'lmay u bilan hamkorlikda psixolog, tarbiyachi bilan birgalikda ish olib bormoqdalar. Rus ta'limotida tyutorlik hozirgacha hodisa bo'lganligi sababli yangi pedagogik jarayonda tyutorning roli to'liq aniq emas. Hatto ushbu konsepsiyaning ta'rifi bo'yicha mutaxassislar o'rtasida konsensus yo'q.

Ingliz tilidan tarjima qilinganda tyutor kelajakda o'z kasbini tanlashda o'quvchilarga "shaxsiy yordamchi" ma'nolarda keladi. Rossiyada "tyutor" mutaxassisi kasblar ro'yhatiga kiritilgan "Menejerlar lavozimlarning yagona malaka ma'lumotnomasi maxsus mutaxassislar va xodimlar" bo'limi hujjatlariga kiritilgan. Lekin bu hujjat faqatgina tyutor haqida gapiradi, alohida yordamga muhtoj bolalarni o'qitishda yordamchi o'qituvchi sifatida tyutor haqida rivojlanish bosqichlari hali muhokama qilinmagan. Dasturlar deyarli yo'q, tavsif ham yo'q. Hatto taxminan tyutorning ishi nima va kim tyutor bo'lishi mumkin degan savol tug'iladi? Inkluziv bolalar bog'chalarida va inkluziv boshlang'ich maktab sinflarida tyutor lavozimi allaqachon joriy qilingan. Ota-onalarning fikriga ko'ra tyutor xuddi enaga vazifasini bajaradi ya'ni bolaning yonida juda ehtiyotkorlik bilan yuradigan qiyin paytlarda yordam beradigan mutaxassis sifatida qaralgan. Tyutorlik 14-asrda mamlakatning yetakchi universitetlarida amaliy mashg'ulotlar paydo bo'lgan paytda shakllangan ya'ni har bir o'quvchiga individual qilib birlashtirish tushuniladi. 2008-yildan boshlab Ta'lim vazirligining rasmiy hujjatlarida "repetitor" tushunchasi paydo bo'ldi. Ular kichik guruhlar o'quvchilari bilan ishlaydigan maktab murabbiysi yoki "sinf o'qituvchisi"

deya ta'rif berilgan. Tyutorlar bolalarni juft-juft qilib ovqat xonasiga sayrga va boshqa joylarga olib boradilar. Bunday harakatlarni bola o'zi bajara olmaydi. Yevropa mamlakatlarida o'qituvchi yordamchisi lavozimi ancha vaqt oldin joriy qilingan. Ba'zi daeslarda tyutorlar bolalarga yordam berishadi. Ayniqsa, aqliy faoliyat talab qiladigan fanlarga ko'proq yordam beradi. Tyutorlar bo'sh vaqt ajratib o'quvchilarni ko'proq muloqotga o'rgatadilar ularning kuchli va zaif tomonlarini korreksiya qilishda va yana bir qancha o'yinlar o'rgatadilar. Bir ingliz maktabida yordamchi o'qituvchi "Dining club" ya'ni alohida rivojlanishda muhtoj bo'lgan bolalar uchun "tanaffus" turi metodikasini ishlab chiqdi. Bu metodikadan o'quvchilar bir-biriga yaqinlashtirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish edi. Shunga qaramay, u bir qancha qiyinchiliklarga duch keldi. Bu qiyinchilik ijtimoiy ko'nikmalarning yo'qligi edi. Bu paytda o'qituvchi metodikani qiziqarli va qulay tarzda tashkil etilishi ko'zda tutiladi ya'ni o'quvchilar o'zlarini boshqara olishi his-tuyg'ularini va bir-biriga bo'lgan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bundan so'ng, o'quvchilarda jamoat hayotida ishtirok etish, ularni maktab miqyosidagi bayramlarga jalb qilish, ekskursiyalarga olib chiqiladi. Maktablarda tyutor vazifalari quyidagilarga bo'linadi:

1. O'quvchiga uy sharoitida yordam berish;
2. Bilim olishga yordam berish;
3. Sinfdozlar bilan muloqotda yordam berish.

Olim L. Tora daun sindromli bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha ikki yillik loyihada ish olib borganlar. Umid qilamizki, bu endigina ish boshlagan mutaxassislar uchun ham foydali bo'ladi. Daun sindromli bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha eksperimental guruh 2009-yilda "Down Side Up" kompaniyasi ish olib bordi. Loyihaga 7 yoshli 9nafar bola kiritilgan bo'lib, ular bilan 2nafar o'qituvchi va 2nafar tyutor ish olib borgan. Daun sindromli bola ta'limda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi tayyorgarlik bosqichidagi vazifalarni rivojlantirish uchun yetarli ko'nikmalar beriladi. Tyutorning faoliyat sohalari bo'yicha Ingliz va Shotlandiya "Daun sindromi assotsiatsiyasi" quyidagilarni ajratdi.

1. Alohida rivojlanishga muhtoj bolalarni o'qitishda o'qituvchiga yordam berish.
  2. Maktab muhitida qiyin ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarga yordam ko'rsatish.
  3. Hissiy-irodavoy namoyon bo'lgan holatlarda psixologga yordam berish.
- Shunday qilib, o'qituvchi bolaga nisbatan quyidagicha ish olib borish kerak.
1. O'quv dasturini o'zlashtirishga yordam berish va qobiliyatini rivojlantirish.
  2. Yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishini ta'minlash.

### 3. Mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Tyutor va o'qituvchining kompetensiyalarini quyidagilarga ajratish mumkin. O'qituvchi asosan o'quv materialini o'qitish uchun javobgardir; tyutor va o'qituvchi muntazam ravishda o'zaro aloqada bo'lishi va birgalikda ishlashi kerak. Har bir darsni rejalashtirishi, dars rejasini tuzishda o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Har bir darsda mavzuga oid ko'rgazmali qurollar bilan dars o'tish kerak. Daun sindromi bo'lgan o'quvchining o'qituvchining o'z faoliyatida tavsiflashi kerak bo'lgan belgilar:

- emotsionallikning kuchayishi;
- qisqa muddatli xotira;
- kechikkan reaksiya;
- adekvat dialog qurishdagi qiyinchiliklar;
- taktil sezuvchanlikning ortishi;
- notekis diqqat;
- xatti-harakatdagi qiyinchiliklar ;
- makon va vaqtdagi oriyentatsiyaning murakkabligi;
- nutqni eshitish orqali idrok etish muammosi;
- fiziologik qiyinchiliklar.

Bularning barchasi tyutor va o'qituvchi hamkorligida olib boriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Maxsus pedagogika. P. M. Po'latova. Toshkent-2005.
2. Дети с синдромом Дауна / Т.Г. Ярощук – Иркутск: ГАУ ЦПММиСП, 2020., - 113 с.
3. Подготовка к школе детей с синдромом Дауна. Благотворительный фонд «Даунсайд Ап» Москва 2012.
4. [www.internet](http://www.internet) ma'lumotlari.